XALQ DEPUTATLARI BO‘STON TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 9 - mart VI-51-26-1-19-K/23 Bo‘ston tumani hokimligi

Bo‘ston tuman mahalliy budjetining yil boshidagi erkin qoldiq mablag‘larini yo‘naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan tuman hokimligining tuman mahalliy budjetining yil boshidagi erkin qoldiq mablag‘larini yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflarini ko‘rib chiqib, Xalq deputatlari Bo‘ston tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1.Tuman hokimligining tuman mahalliy budjetining yil boshidagi erkin qoldiq mablag‘larini ilovaga muvofiq yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

2.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari V.Soliyev, tuman moliya bo‘limi bilan birgalikda:

mazkur qarorning ilovasiga muvofiq ko‘zda tutilgan tadbirlarni o‘z vaqtida moliyalashtirish uchun tuman hokimi farmoyishlari loyihalarini tayyorlash;

O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi talablari asosida tuman mahalliy budjetining tasdiqlangan parametrlariga belgilangan tartibda tegishli o‘zgartirishlarni kiritish;

ajratilgan maqsadli mablag‘larni o‘z vaqtida va samarali ishlatilishi yuzasidan moliyaviy hisobotlar asosida tizimli o‘rganish hamda o‘rganish natijalariga ko‘ra, ishlatilmagan va iqtisod qilingan mablag‘larni tuman mahalliy budjetiga qaytarish choralarini ko‘rsin.

3. Tuman g‘aznachilik bo‘linmasi ajratiladigan mablag‘lar bo‘yicha shartnomalarni o‘z vaqtida ro‘yxatdan o‘tkazish va xarajatlarni belgilangan tartibda amalga oshirilishini ta’minlasin.

4. Ilovaga muvofiq mutasaddi tashkilot raxbarlari ajratilgan mablag‘larni maqsadli va samarali ishlatilishini ta’minlasinlar.

5. Mazkur qaror ijrosini ta`minlash tuman hokimining birinchi o‘rinbosari V.Soliyevga, nazorati Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo`ycha doimiy komissiya raisi R.Sulaymonova zimmalariga yuklatilsin.

6. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Сессия раиси **S.A.NOSIROVA**

Xalq deputatlari Bo‘ston tuman
Kengashining
2023 yil 9 martdagi
VI-51-26-1-19-K/23-son qaroriga
1-ilova

Tuman hokimligining tuman mahalliy budjetining yil boshidagi erkin qoldiq mablag‘larini yo‘naltirilishi

T A Q S I M O T I

Ming so‘mda

№	Sohalar nomi	Xarajat mazmuni	Summasi
1	Tuman hokimligi	Temir daftarga	**151 932**
2	Tuman hokimligi	Ayollar daftariga	**151 932**
3	Tuman hokimligi	Yoshlar daftariga	**151 932**
4	Tuman hokimligi	**"Open budjet"** jamoatchilik fikriga asosan	**303 864**
5	Obodonlashtirish boshqarmasi	"Ekologiya, atrof muhitni muxofaza qilish va chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish" jag‘armasi (yashil makon)	**20 258**
6	Tuman hokimligi	Sanoat zonalarining yerlari "Ekin yer" toifasidan chiqarishga	**23 966**
7	Ijtimoiy soxa muassasalarini Davlat xususiy sherikchilik asosida isitilishi bo‘yicha bitim summasi farqi		**200 000**
8	Tuman hokimligi	Matbuot xizmati ish haqi va 25% ajratmasi	**8 996**
Жами		**X**	**1 012 880**